ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

HARBIY TAYYORGARLIK FANINI O‘QITISHDA TA’LIM TARBIYANING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Anorboyev Abdulla Abduhakimovich, O‘zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi katta o‘qituvchisi, dotsent, podpolkovnik

Annotatsiya. Mazkur maqolada harbiy tayyorgarlik fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni harbiy xizmatga tayyorlash jarayonida interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari va innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish dolzarb masala sifatida ko‘rilmoqda. Maqolada zamonaviy texnologiyalarning harbiy tayyorgarlik darslarida qo‘llanishi orqali ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, o‘quvchilarning harbiy ko‘nikmalarini mustahkamlash, shuningdek, ularning intellektual va ma’naviy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar: harbiy tayyorgarlik, ta’lim-tarbiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, vatanparvarlik, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, harbiy xizmatga tayyorgarlik, innovatsion yondashuv, pedagogik jarayon, jismoniy va ma’naviy tarbiya.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение современных педагогических технологий в преподавании военной подготовки. На сегодняшний день актуальным вопросом считается эффективное использование интерактивных методов, информационно-коммуникационных средств и инновационных подходов в процессе воспитания подрастающего поколения в духе патриотизма, подготовки их к военной службе. В статье рассматриваются возможности повышения качества образования за счет использования современных технологий на уроках военной подготовки, укрепления военных навыков курсантов, а также развития их интеллектуального и духовного потенциала.

Ключевые слова: военная подготовка, образование, современные педагогические технологии, патриотизм, интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии, подготовка к военной службе, инновационный подход, педагогический процесс, физическое и духовное воспитание.

Abstract. This article discusses the role and importance of modern pedagogical technologies in teaching military training. Today, the effective use of interactive methods, information and communication tools and innovative approaches in the process of educating the younger generation in the spirit of patriotism, preparing them for military service is considered a pressing issue. The article discusses the possibilities of improving the quality of education through the use of modern technologies in military training lessons, strengthening the military skills of students, as well as developing their intellectual and spiritual potential.

Keywords: military training, education, modern pedagogical technologies, patriotism, interactive methods, information and communication technologies, preparation for military service, innovative approach, pedagogical process, physical and spiritual education.

Bugungi globallashuv va raqobat kuchaygan davrda yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni mustahkam bilim, amaliy ko‘nikma va intizomga ega bo‘lgan fuqarolar etib voyaga yetkazish dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, umumta’lim maktablarida harbiy tayyorgarlik fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bu yo‘nalishdagi samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Harbiy tayyorgarlik fani o‘quvchilarga Vatan himoyasiga

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

tayyorlanish, harbiy xizmatga tayyorgarlik ko‘rish, fuqarolik muhofazasi, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish kabi hayotiy zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bu fan orqali yoshlar nafaqat harbiy bilimlarga ega bo‘ladilar, balki ularda yurtga sadoqat, jasorat, intizom va mas’uliyat hissi mustahkamlanadi.

Mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallagan, o‘z yurti, o‘z xalqiga fidoyi, yurtboshimiz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo‘lgan, har tomonlama sog‘lom avlodni tarbiyalash har bir ta‘lim beruvchining eng muhim vazifasi, yurtboshimiz ta’birlari bilan aytganda, balki burchidir. Ushbu burch va vazifalarni bajarish har bir pedagogdan yuksak bilim, ulkan mahorat, zamonaviy ilm-fanning yutuqlaridan xabardor bo‘lish, xorijiy tillarni puxta egallash, kompyuter texnologiyalaridan, internetdan maqsadli foydalanish ko‘nikmalariga hamda yuqori malakaga ega bo‘lishni talab etmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy-nazariy va metodik asoslangan yangi shakl, usul va vositalarining majmuidir. Bunda yangi mazmun, shakl, usul va vosita uyg‘unligida maqsad, vazifa, faoliyat va pedagogik natija yaxlitligi ta‘minlanadi hamda o‘quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o‘quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi [2].

Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko‘rsatmali tuzilmada o‘z ifodasini topadi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan.

O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan birga, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi. O‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri joriy etilishi o‘quvchilarning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa, talabalardan ko‘proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, talabani kim o‘qitayotganligi va o‘qituvchi kimni o‘qitayotganligiga bog‘liq. Shu boisdan, harbiy ta’lim tizimida mashg‘ulotlarning mazmunini chuqur va ko‘zlangan maqsadga yetkazish uchun bugungi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalangan holda mashg‘ulotlarni qiziqarli tarzda olib borish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Harbiy bilim yurtlarida fan va texnikaning taraqqiy etgan bir davrida tinglovchi va kursantlarga uzluksiz ravishda yangi ma’lumotlarni yetkazish bilan birga mutaxassislik ma’lumotlarini yetkazishda kasbiy ko‘nikma va malakalar tizimidan to‘g‘ri foydalanish, tinglovchi va kursantlarni kasbiy kompetentligi yuqori darajada shakllangan qilib tarbiyalashda harbiy ta’lim o‘qituvchisi har tomonlama bilim va malakaga ega bo‘lishi lozim. Shuningdek, har bir harbiy ta’lim o‘qituvchisi o‘z sohasining ustasi, mohir tarbiyachi, jonkuyar va fidoyi bo‘lishi uchun o‘z ustida tinmay izlanishi, o‘z ishiga ijodiy yondashishi, ta’lim oluvchilarni fanga qiziqtira olishi kerak bo‘ladi.

O‘qituvchilar darsga tayyorlanayotganda har xil interfaol metod va usullarni qo‘llab, yangi materialni qanday bayon qilishni o‘ylaydi. Shu boisdan, hozirgi zamonaviy o‘qituvchini harbiy xizmatchilarga ta’lim-tarbiya berishning zamon talabiga javob beradigan ilg‘or pedagogik

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

texnologiyalardan xabardor qilib borish bilan birga, ularni amalga oshirish texnologiyalari bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – bu o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, faol ishtirokini, amaliy mashg‘ulotlar orqali bilimlarni chuqurroq egallashini ta’minlaydigan innovatsion yondashuvlar majmuidir. Jumladan, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), klaster usuli, “Aqliy hujum”, “Keys-stadi”, “Rol o‘ynash” texnologiyalari harbiy tayyorgarlikda o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol o‘rganuvchiga aylantiradi. Oliy harbiy ta‘lim muassasalari harbiy xizmatchilarning o‘quv jarayoniga yangicha yondashuv asosida “Charxpalak”, “Blits-so‘rov”, “Klaster”, “Qarorlar shajarasi”, “Rezyume”, “BBB” kabi grafikli organayzerlar vositasi hamda “Aqliy hujum”, “Delfi”, “Bumerang”, “Zinama-zina”, “FSMU” va boshqa shu kabi zamonaviy interfaol pedagogik texnologiyalarni keng tatbiq etish orqali ularning kompetentligini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Jumladan, Vatanga sadoqat, jamoaviylik, o‘ziga bo‘lgan ishonch, mas’uliyat, chaqqonlik, halollik kabi fazilatlar dars jarayonida tabiiy shakllanadi. Bunday interfaol metodlardan mashg‘ulot vaqtida foydalanish ta’lim oluvchilar va o‘qituvchi orasida ma’lumot almashish muhitini kengaytirib, ta’lim oluvchilar o‘zlarini bu muhitda erkin tutishi orqali o‘z fikr-mulohazalarini ravon ifoda etish, mantiqiy fikrlash, to‘g‘ri qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishi, kasbi, sohasiga doir me’yoriy hujjatlarni puxta o‘zlashtirishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, harbiy xizmatchilar tomonidan yangi g‘oya va loyihalarning ixtiro etilishiga yana bir yangi qadam bo‘lar edi. Bunga erishish uchun esa, maxsus fanlar o‘qituvchilari va kasb o‘qituvchilari o‘z mehnat faoliyatining mazmunini to‘g‘ri rejalashtira olishi, ta’lim jarayoniga o‘qitish texnologiyalarini to‘g‘ri qo‘llay olishi, axborot texnologiyalarini bilishi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan mashg‘ulot jarayonida samarali foydalana olishi lozim. Harbiy kadrlarni malakasini yanada oshirish, ularning chet tillarni egallashi, ta’lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirishi va o‘quv ishlariga eng yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etishi muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Harbiy tayyorgarlik fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish – bu yoshlarni nafaqat harbiy xizmatga tayyorlash, balki ularni barkamol, mustaqil fikrlaydigan, yuksak vatanparvarlik tuyg‘usiga ega shaxs sifatida tarbiyalashning muhim kafolatidir. Shu bois, pedagoglar zamonaviy texnologiyalarni chuqur o‘rganib, ularni harbiy tayyorgarlik darslarida ijodiy qo‘llashlari lozim.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: Adolat, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 14-iyun PQ-3775-son “Harbiy-vatanparvarlik ishlarini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “Harbiy tayyorgarlik fanini o‘qitish tartibi to‘g‘risida Nizom” qarori. – T., 2019.
4. Raxmonqulov A.A., Yunusova S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2021.
5. Yusupov M.M., Turg‘unov B.A. Harbiy tayyorgarlik asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2019.
6. Axmedov B., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar. – T., 2020.
7. G‘ulomov S., Qurbonov T. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari asoslari. – T.: Ilm Ziyo, 2022.
8. Jumayev A.X. Vatanparvarlik va harbiy tarbiya. – T.: Yangi asr avlodi, 2020.
9. Ziyayeva N.M. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida zamonaviy yondashuvlar // Pedagogika va psixologiya. – T., 2023. – 3-son.